UDK: 553.411(575.1)

XODJADIK MAYDONINI STRATIGRAFIYASI VA FOYDALI QAZILMALARI

Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich
Qashi davlat texnika universiteti, dotsenti, PhD
E-mail: axmedov-x-68@mail.ru
Panjiyev Hikmat Ahadillayevich
Qashi davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi
E-mail: hikmat.panjiyev02@mail.ru
Musallamov Zuhriddin Xusniddin o‘g‘li
Qashi davlat texnika universiteti, talaba
E-mail: musallamovzuhriddin96@gmail.com
A.M.Shodiyev
Xisor MGQE yetakchi geologi taqrizi asosida.

Annotatsiya. Mamlakatimizda asl, nodir metallar va noyob yer elementlariga bo‘lgan talab yildan yilga oshib bormoqda, binday konlarini qidirish, razvedka qilish va bashoratlash, geologik-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish, tog‘ jinslari va ma’dan hosil bo‘lishning zamonaviy ilmiy nazariyasini, qidiruv-bashoratlash me’zonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatimizda ma’danli konlarni stratigrafik va geologik sharoitlarini petrofizik tadqiqotlar natijalari foydali qazilma konlarini hosil bo‘lishidagi roli qidiruv me’zonlarini ishlab chiqish kabi bir qator muammolarni hal qilishda muhim axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Xodjadik, Chakilkalyan, skarn, sheyelit, kvars-seritsit, kvars-plagioklaz va kvars qumtoshlari, kvartsitlar, slyuda-uglerodli-kvars, uglerodli-slyuda-kvarslashgan slanets va qumtosh.

Annotatsiya. Еже годно растет потребности на элементы благородные и редкие металлы, с связи с этим разработки критерии поиски, разведки и прогнозирование месторождение полезных ископаемы стране, эффективно организовать геолого-разведочный работ, современно научной обоснование формирование горных пород и рудообразование, разведка-прогнозировании является важнее значения. Важнейшие информационно источником служат результате петрофизический исследование стратиграфический и геологические условия Рудни месторождение.

Ключевые слова: Ходжадик, Чакылкалян, скарн, шеелит, кварц-серицит, кварц-плагиоклаз и кварцевые песчаники, кварциты, слюда-углеродисто-кварцевый, углеродисто-слюди, сто-кварцевый сланец и песчаник.

Abstract. The need for elements of noble and rare metals is increasing every year, therefore, the development of criteria for the search, exploration, and forecasting

ISSN 3030-3907

of mineral deposits in the country, the effective organization of geological exploration work, and the modern scientific substantiation of rock formation and ore formation are of paramount importance in exploration and forecasting. The results of petrophysical studies, stratigraphic and geological conditions of the Rudny deposit serve as the most important information source.

Keywords: Khodzhadik, Chakylkalyan, skarn, scheelite, quartz-sericite, quartz-plagioclase and quartz sandstones, quartzites, mica-carbon-quartz, carbon-mica, hundred-quartz shale and sandstone.

Kirish.

Mamlakatimizda asl, nodir metallar va noyob yer elementlariga bo‘lgan talab yildan yilga oshib bormoqda, binday konlarini qidirish, razvedka qilish va bashoratlash, geologik-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish, tog‘ jinslari va ma’dan hosil bo‘lishni zamonaviy ilmiy asoslariga tayanib konlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Dala ishlarida materiallarini eksperimental qayta ishlash quyidagilarni taqqoslash imkonini berdi:

-rejali (birlamchi) va nazorat namunalash natijalarini;

-jo‘yakli usulida olingan namunalarning ma’lumotlarini;

-kolonkali burg‘i quduqlaridan olingan kern va kolonkali burg‘i quduq kernlar dublikatlari ma’lumotlarini;

-kolonkali burg‘i quduqlari va tog‘-kon inshootlari ma’lumotlarini.

Namunalarni materialning kattaligiga qarab (namuna olish, maydalash va tashish paytida tarqalishi) turli fraksiyalarga saralanishini baholash orqali ularning foydali komponentlar ko‘rsatkichlariga ta’siri aniqlandi. Namunani elakdan o‘tkazish ma’lumotlari asosida tog‘ jinslarining mineralogik tarkibi ham o‘rganildi.

Prezidentimiz geologiya sohasini modernizatsiya qilish va sarmoya jalb etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida. Geologiya-qidiruv ishlarini ko‘paytirish hisobiga mineral-xom ashyo bazasini sezilarli darajada kengaytirish zarurligi ta’kidlandi. Tegishli davlat korxonalarini konvertatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Malakali kadrlar tayyorlash, geologiya fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xodjadik ma’danli maydoni Chakilkalyan megablokining Shimoliy sektorida joylashgan bo‘lib, uning ichida skarn va skarnoid turlarining bir qator obyektlari ma’lum. Chakilkalyan tog‘laridagi skarnlarda sheyelit mineralizatsiyasi birinchi marta 1945 yilda aniqlangan va o‘shandan beri ma’lum volfram obyektlarining istiqbollarini oshirish va yangi maydonlarni aniqlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

ISSN 3030-3907

Xodjadik ma'danli maydoni tog' jinslarini aniqlash va xududning stratigrafik xususiyatlari va ma'danlarning moddiy tarkibini o'rganish to'g'risida g'oyalarni shakllantirgan.

1967-68 yillarda Xodjadik-Kamangaron-Yaxton kesmasida Chakilkalyan megablokining Shimoliy qismida 100 km^2 maydonda P. F. Yegorov va N. Giyasov rahbarligida m-b 1:10000 (Jizzax GGG) kompleks geologik-geofizik ishlar, shu jumladan geokimyoviy geodeziya ishlari olib borildi, shlix sinovlari, birlamchi oreollarni litogeokimyoviy qidirish, magnetometriya, VP usuli, litologik-stratigrafik va geofizik oreollarni aniqlashga qaratilgan. 1968 yilda bosh geolog Yegorov P. F. bilan birgalikda geologik geofizik tadqiqotlar va boshqa partiyalar bilan birgalikda qushimcha geologik tadqiqotlar o'tkazildi. Qidiruv va suratga olish ishlari Zarafshon ekspeditsiyasining Chakilkalyan QRG guruhi tomonidan bajarildi.

Natijalar. Ta'riflangan Xodjadik ma'danli hududida paleozoy erasi va kam qalinlikdagi kaynozoy erasi jinslari murakkab tuzilishli jinslar bilan va metamorflashgan cho'kindi tog' jinslari aniqlangan.

Ushakov V.N. paleozoy erasi yotqiziqlarini asosiy 4 ta geologik tuzilmalarga ajratgan; vulkanogen-terrigen; vulkanogen-terrigen-karbonat; karbonat va terrigen-kremniy-karbonatli svitalarga ajratishgan.

Paleozoy erasi ordovik davri O_{2-3}. tog' jinslari vulkonogen-terrigen formatsiyali Shaxriomon svitasi yotqiziqlaridan iborat. Chakilkalyan tog'larida paleozoy jinslarining tarqalishni uch turga ajratishgan. Birinchisi, Chakilkalyan megablokining pastki zonasining janubiy qismida bo'lakli jinslar tarkibidagi vulkongen jinslarning hajmi (10-15% gacha) bilan tavsiflanadi. Ikkinchisi, fizik kimyoviy jarayonlar natidasida terrigen jinslar subzonaning shimoliy qismida ko'proq rivojlangan. Uchinchi, Chakilkalyan megablokining markaziy qismida terregen tog' jinslarning keng rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Qatlamlar slanetslar, alevrolitlar, qumtoshlar, gravelitlar, konglomeratlar, vulqon jinslari bilan ifodalangan, gilli ohaktoshlar kichik qalinlikdagi linza qatlamchalari aniqlangan. Qatlamlangan jinslarning tarkibida sezilarli darajada xlorit yoki seritsitning ko'pligini, yoriqli yoki aralash turlari uchun esa kvarsning sezilarli darajada oshganligini bilan ifodalanadi.

Xududning g'arbiy qismida jinslar ketma-ketli, asosan yashil rangli qumtoshlar va ko'p miqdorda mayda slyudalar, tarkibida ko'p bo'lgan kvars-feldshpatoidli alevrolitlar bilan ifodalanadi.

Kvars-seritsitli slanetslar qatlam shaklda qayd etilgan. Sharqda esa bu yotqiziqlarga quyidagilar kiradi: kvars-plagioklazli va qumtoshli kvars, tekisliklarida esa seritsitli jinslar ko'p tarqalgan, kvars-xlorit-seritsitli slanetslar bilan alevrolitli qatlamlar aralashganligi bilan ifodalanadi. Xududda gravelitli,

ISSN 3030-3907

andezit porfiritli va ularning tuflari kichik qalinlikda qatchalar shaklida qayd etilgan. Terrigen tog‘ jinslarning o‘ziga xos xususiyati zichlashgan mikrodonali bo‘lib, kvarsning tomirsimon turlari bilan ajralib turadi. Xususdda tasvirlangan alevrit va slanetslarning ketma-ketligi oval ko‘rinishda tasvirlanadi. Oval shaklidagi alevrit va slanetsli qatlamning bir qismi kvars-plagioklaz qumtoshlardan iborat. Qatlam qalinligi 450 m ga etadi.

Karbon davri C_1 Shing svitasida vulkanogen-terrigen-karbonatli, tufli-terrigen-karbonat va datsit-liparit tog‘ jinslar hosilalari bilan ifodalanadi.

Janubiy Chakilkalyan tog‘larida tufli-terrigen-karbonat tog‘ jinslari qatlam ko‘rinishda bo‘lib, ikki xil kesimga ega: a) sof ohaktoshlarning ustunligi, aralash qumtoshlarning sezilarli darajada rivojlanishi va qalinligining ortishi bilan. Tufli ohaktoshlarning fizik xususiyatlari va litologik ko‘rinishi xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tuf oxaktoshli jisnlarda karbonat massasining notekis taqsimlanishi tuf va qumtosh aralashmalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Oxaktosh qatlamlarida aralash tarkibli qatlarda keskin o‘zgarib turadi, shuning uchun tog‘ jinslari ko‘pincha linza, tomirsimon (lenta), kamroq bo‘lakli tuzilishlarda uchraydi. Qatlamda qumtosh va slanets jinslar qayd etilgan. Qatlamning pastki qismida kvars gravelitli jinslar bilan ajralib turadi.

Qatlamlarning karbonat jinslari hosil bo‘lishida piritning sulfidlanishi va oksidlanishi natijasida sarg‘ish-kulrang tusga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Datsit-liparit qatlamlari rivojlangan joylardagi gilli ohaktoshlar ohakli slanetslar tarkibida uchraydi.

Karbon davri C_1^1 datsit-liparit formatsiyalari qatlamli ketma-ketlikni hosil qiladi, bu shimoliy Chaqilkalon kichik zonasida eng qadimgi magmani tashkil qiluvchi tuzilmalardan birini ko‘rsatadi. Xosilalar vulqon jinslari bilan ajralib turadi, lekin ular bilan birga, ba’zan sezilarli miqdorda, terrigen jinslar ham mavjud. Vulkanik tog‘ jinslar kvars va datsitli porfirlar, ularning tuflari, kamroq esa andezit tog‘ jinslari bilan ifodalanadi. Ko‘pincha intruziv tog‘ jinslar kuchli o‘zgargan (ba’zan ikkilamchi kvarsitlashgan); ko‘pincha ular apovulkanogen tog‘ jinslarga qaraganda ajratib bo‘lmaydi. Ba’zi saqlanib qolgan nordon jinslari bilan aralash tarkibga ega. Asosli jinslar jadal ravishda o‘zgarib, qatlamlanadi va xloritlashadi. Ba’zi hollarda liparitlar vulkan jinslari orasida doira shaklida ko‘rinadi; sulfatlanish jarayoni natijasidir kamdan-kam yoriqlar ko‘zatiladi

Bu hosilalar kvarsli qumtoshli terrigen jinslardan iborat. Stratigrafik jihatdan yuqorida yotgan qatlamlar bilan bog‘langan.

Vulkanogen-terrigen-karbonatli jinslar tarkibiga kiruvchi karbonat-terrigen-tufogen tanalarning qanotlari tarqalish areollarida joylashgan. Ordovik davri O_{2-3} vulkanogen-cho‘kindi tuzilmalari stratigrafik jihatdan pastda joylashgan quyi silur

ISSN 3030-3907

dolomitlari ustida mos yotadi. Tavsiflanayotgan tog‘ jinslarining tarkibi rang barang va teksturasi xilma-xil o‘zgaruvchan xususiyatga ega.

Xodjadiq-Yaxton-Oqbaydjuman volframli yo‘nalishining g‘arbiy qismida karbonat-terrigen-tufasimon qatlam nihoyatda xilma-xil va rang-barang bo‘ladi. Uning qismi umuman Chakilkalyan tog‘lariga xos emas. Unda yashil slanetslar va amfibolitlar katta rol o‘ynaydi, ular mayda qatlamli slanetslar, oraliq tarkibli tuflar va gravelitlar bilan almashadi. Qatlamning qalinligi 20-30 dan 150 m gacha katta farq qiladi Xodjadiq ma’danli maydonining sharqiy qismida qatlamlar terrigen-vulkanogen tuzilmalardan karbonatli tuzilishlarga o‘tish xolatlari bilan tavsiflanadi.

Qatlamli tufoalyumosilikatli jinslar ohaktoshlar bilan almashinib keluvchi yupqa linzasimon qatlamlar bilan tavsiflanadi. Maydonda Shing svita qatlami ichida tufli jinslar mineral miqdori keskin kamayadi va bir xil yo‘nalishdagi karbonat qatlamlarida dolomit xosilalari shakllanadi. Ma’dan yaqin zonalarda alyuminosilikatli tog‘ jinslarida riolit tarkibli tuflar, bo‘laklangan qum-gilli qatlamlari, seritsit-kvars, dala shpati-seritsit-kvars, xlorit-seritsit-kvars slanetslari bilan ifodalanadi.

Karbonat-terrigen-tufli qatlamning qalinligi hududning shimoli-g‘arbida 100 m atrofida, janubi-sharqida esa 20-50 m ko‘zatiladi.

Karbonat va tufli tog‘ jinslarning genetik yotqiziqlari ohaktoshlar tagida, ularning kesimida va ko‘pincha tepa qismida bir-biriga mineralogik jihatdan o‘xshash vulkanogen va cho‘kindi-vulkanogen jinslar mavjudligi bilan asoslanadi.

Chakilkalyan tog‘larida Quyi Venlock yarusi Ohaktoshlarida stromatoporlar, marjonlar va braxiopoda qoldiqlari keng rivojlangan.

Sharqda (Kamangaron ma’danli maydonida) qatlam tarkibida tufli-gilli ohaktoshlar, ishqorli tuflar va dolomit qatlamchalari bilan alevrit-gilli dolomitli ohaktoshlar tarkibida sheelitli ma’danlashuv kuzatiladi.

Qatlamning o‘ziga xos xususiyati genetik piritning oksidlanishi natijasida pushti rangda bo‘lishidir. Qatlam qalinligi 50-100 m.

Yaxton konidagi Chaqilkalyan megablokining shimoliy segmentining markaziy qismida tasvirlangan qatlamning tarkibi och va to‘q kulrang, sarg‘ish-kulrang mayda donador va afanit ohaktoshlar bilan ifodalangan. Terrigen va effuziv-terrigen yotqiziqlarning 10-30 smli qatlamlari shakllangan.

Karbonatli jinslar tahliliga ko‘ra qatlam tarkibida 5,6 dan 16,4% gacha dolomitli jinslar mavjud. Qatlamlar va linzasimon qatlamchalar qumtoshlar, slaneslar va vulqon jinslari (tuflar, kvarsli va datsitli porfirlar) dan iborat. Qatlamlar (qalinligi 1-5 mm) ko‘pincha kavarsli bo‘lib, bu tog‘ jinslarga mikroteksturali ko‘rinishga ega. Effuziv-cho‘kindi jinslar yuqori darajada metamorflangan bo‘lib, ularning asl ko‘rinishi saqlanib qolmagan. Qatlam qalinligi 20-100 m.

ISSN 3030-3907

Chaqilkalon megablokining sharqiy qismidagi volfram ma'danlashuvining mahsuldor qatlami ishqoriy effuzivlar bilan birlamchi gilli-tufogen ohaktoshlarning murakkab magmatik qatlamlaridan tashkil topgan. Qatlam qalinligi 250 m. Tog' jinslarining o'ziga xos xususiyati ularning rang-barangligi, oksidlangan pirit tufayli pushti-jigarrang ranglari ustunlik qiladi. Tarqalish oreoli kvars-dala shpati-diopsidli, kaliyli-silikatli minerallardan tashkil topgan.

Karbonat formatsiyasi - C_{1-2} - D_1 - uchta aniq bo'linmaga ega va vertikal kesimda yaxshi saqlangan.

Dolomitli formatsiya (Kuturak qatlami) C_{1-2} zonasi asosida qalinligi 5-25 m bo'lgan gilli va amfiporli dolomitlar gorizontiga ega bo'lib, u massiv teksturalangan bitumli dolomitlar bilan qoplangan. Dolomitli formatsiya sezilarli organik qoldiqlarga ega bo'lmagan to'q kulrang dolomitlardan iborat bo'lib, ular orasida noaniq massiv jinslari keng tarqalgan. Kulrangdan och kulranggacha bo'lgan qatlamli dolomitlardan iborat. Dolomitlar tarkibida silikat va aluminosilikat mineral miqdori bir oz ko'p, kremniyli jinslarni xosil bo'lishi va kremniyli minerallarni qo'shilishidan, mayda kremniyli tomirlar oralig'ida va kontakt metamorfizm xosilalarida tremolitli jinslar vujudga keladi. Qatlamning ustki qismi dolomit ohaktoshlarining oraliq qatlamlari bo'lgan tasmali to'q kulrang va kulrang dolomitlar bilan ifodalangan. Qatlamlarning qalinligi 300 dan 500 m gacha o'zgarib turadi.

Qatlamning ko'ndalang kesimida ohaktosh-dolomitli formatsiya (Kopruk qatlami) C_2 nisbatan kichik hajmni egallaydi. Chaqilkal'onning shimoliy kesimi Chaqilkal'onning janubiy kesimidan farqli o'laroq, kesim qalinligining kichikligi (25-50 m gacha) va kremnezem miqdorining biroz oshishi bilan ajralib turadi.

Formatsiya odatda kamdan-kam ohaktosh va dolomit qatlamlari bo'lgan dolomitli ohaktoshlardan iborat. U notekis va dekorativ kulrang ohaktoshlardan iborat bo'lib, ularda to'q rangli dolomitlar uchraydi. Dolomitli ohaktoshlar, ayniqsa Chakilkalonning shimoliy hududida, ohaktosh va dolomitli materiallar o'rtasidagi keskin rang-barangligi tufayli bezakli linzasimon-tugunli tekstura bilan ajralib turadi. Kesma bo'ylab yuqorida to'q kulrang va kulrang dolomitlashgan ohaktoshlar yotadi, ularda dolomitlar qalinligi uncha katta bo'lmagan (5 m gacha) linzalar shaklida uchraydi.

Karbon davri C_2 ohaktosh-dolomit tog' jinslari ingichka chiziqlar shaklida rivojlangan. Kesma qalinligi oshishi bilan asosiy tarkibiy qismlarning kamroq keskin farqlanishiga ega bo'lgan linzali yo'l-yo'l xollangan tekstura ustunlik qiladi. Bu holatda mahsulotlar o'rtasida aniq chegaralar yo'q. Dolomitli ohaktoshlar plastinkasimon tuzilishga ega bo'lib, asosan bitumli va ko'p organik qoldiqlarga ega. Ohaktosh va dolomit komponentlarining nisbati ko'pincha juda katta farq

ISSN 3030-3907

qiladi. Boshqa sezilarli tarkibiy qismlar qizg‘ish yoki jigarrang terrigen va terrigen-karbonatli materialning konkretsiyalari bo‘lib, ular kremniy jinsaridan iborat.

Kontakt metomorfizm jarayonlarida qayta kristallanish kuchli namoyon bo‘ladi. Dolomitli ohaktoshlar qo‘shni ohaktosh jinslari bilan mos stratigrafik joylashgan. Qatlamning umumiy qalinligi 250 m.

Devon davri D_1 madmon svitasida ohaktoshlar massiv, ingichka chiziqli kulrang ohaktoshlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Noaniq kantaktlar asosan uglerodli komponentning oz miqdoridagi o‘zgarishlarga bog‘liq. Ularga afanitli turlari xos bo‘lib, xollangan va dentritli turlari (odatda krinoid) kamdan-kam uchraydi. Yotqiziqlar janubiy Chakilkalyan xududlarida qalinlashgan. Markaziy Chakilkalyan xududining pastki qismida terrigen material alohida qatlamlarida, slanets qatlamchalari, yupqa gil-karbonat qatlamlari va linza shakllari mavjud. Massivli yotqiziqlar keng tarqalgan, kamdan-kam hollarda fasiya shaklida yotadi. Kontakt metamorfizm ta’sirida tog‘ jinslar o‘zgaradi va marmarlashadi. Qalinligi 450 m ga etadi.

Devon davri D_{1-2} Xo‘jaqorg‘on svitasi Terrigen-kremniyli-karbonatli tog‘ jinslari mos stratigrafik kontaktga ega. Ammo mahalliy stratigrafik nomuvofiqlik kantaklari ham mavjud. Xududning tektonikasida siljishi xarakatlari mavjud: Hududning katta qismida o‘rta devon davrida shakllangan, biroq Chakilkalyan kichik zonasining janubiy qismi quyi devon yotqiziqlariga aniqlangan.

Qatlam to‘q kulrang ohaktoshdan iborat. Qatlamda bir necha santimetr kattalikdagi linzasimon va donador qushimchalar mavjud. Qatlam tarkibida gilli slaneslarning qayta qatlamlanishi kuzatiladi. Odatda kremniyli va slanesli qo‘shilmalar bir necha foizni tashkil etadi, lekin vertikal va yon kesmalarda tarkibida ba’zan 40-50 foiz, ba’zan undan ham ko‘p ohaktosh qatlamlari uchraydi. Shakllanish terrigen materiallar qizil rangli ko‘rinishi bilan tavsiflanadi. Tog‘ jinslari tektonik yoriqlarda kengroq tarqalgan. Qatlamlarning qalinligi 500 m ga etadi.

Kaynazoy era yotqiziqlari xududning tog‘li qismiga tutash hududlarda keng o‘zlashtirilgan. Ular Ulus-Jam depressiyasida, shimoliy tog‘ etaklarida va Qashqadaryo havzasida nisbatan katta maydonlarni egallaydi. Ular orasida paleogen, neogen va to‘rtlamchi davr yotqiziqlari shakllanishlari aniqlangan.

To‘rtlamchi davr yotqiziqlari (Q)

Xududning tog‘li qismida to‘rtlamchi davr yotqiziqlari soy tog‘ yonbag‘irlari, suv havzalari va vodiylari bo‘ylab tarqalgan. Ular konglomeratlar, lyoss, lyosssimon va tuproqlar, shag‘al va maydalangan toshlar bilan ifodalanadi.

To‘rtlamchi davr yotqiziqlarining qalinligi tog‘larda 30—50 m ga, tog‘ etaklarida esa 100 metr va undan ko‘proqqa etadi.

ISSN 3030-3907

Xulosa. Olingan namunalar quyidagi laboratoriya tahlillaridan o‘tkazildi: kimyoviy tahlillar (714 namuna), spektral tahlillar (1611 namuna), mass-spektrall tahlillar (ISP) (65 namuna), oltin tahlilli analiz (320 namuna).

Monofraksiyalarni binokulyar ostida ko‘rilganda



Sheelit



Kvars tarkibidagi volframit

Sayqanlangan anshliflarni va shaffof shlif tarkibi polyarizatsion mikroskop ostida ko‘ringanda



Oltin (1). O‘lchami 0,0021 mm. Kattalashtirilgan 1000^{x}.



Sheelit (1), pirit (2). Kattalashtirilgan 200^{x}.

Xodjadiq ma’danli konining umumiy tuzilishi sanoat ahamiyatiga ega volfram ma’danlashuvi bilan bog‘liq minerallashgan zonalarning o‘rnini ketma-ket tik tushish ta’sirida tektonik siqilishi natijasida burmalari qatorida namoyon bo‘ladi.

Xodjadiq volframli ma’dan tanalari piroksen-dalashpatli-kvars, piroksen-amfibolli-dalashpatli-kvars, amfibol-dalashpatli-kvars skarnlardan tashkil etadi.

Skarnli ma’dan tanalarda asosiy volframli minerallashgan zonalarda sheyelit sulfid mineralizatsiyasi bilan birga ifodalanadi. Sheyelit uch generatsiya bosqichi tomonidan taqdim etiladi. Sulfid mineralzatsiyasi asosan pirotin bilan ifodalanadi. Pirit va xalkopirit juda kam miqdorda tarqalgan. Ma’dan tanalardagi sulfidlarning umumiy miqdori 2-4% dan oshmaydi.

Chakilkalyan tog‘lari volfram va boshqa foydali qazilmalarning konlari bilan tavsiflanadi. Ularda turli maqsadlarda qurilish xomashyosi hisoblangan marmar, ohaktosh, dolomitning katta zahiralari mavjud.

Volfram. Yaxton koni Chakilkalyon tog‘ tizmasining suv ayirgichi qismida, Urgutsoy oqimining bosh qismida joylashgan.

Kon asosan prjidol yarusi bosqichidagi kichik qatlamli silikat-karbonat jinslari bo‘ylab (shimoliy hududning qatlam konlari) va granitoidlarning quyi

ISSN 3030-3907

devon davri ohaktoshlari bilan tutashganda hosil bo‘lgan gedenbergitli skarnlari bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Безуглов Э.Д. Отчет Варганзинской партии о результарах геолого-съемочных работ м-ба 1:25000, провеленных в 1970-71 г.г. Фонды ГП «Кашкадарьинской ГРЭ»
2. Коробейников Г.Н. Отчет о результатах опытно-методических работ по повышению эффективности геохимических методов поисков и оценки проявлений цветных и благоролных металлов в пределах Южного Узбекистана за 1976-79 гг. Фонды ГП «Кашкадарьинской ГРЭ»
3. Раскин В.Е. Отчет о результатах детальных поисковых работ на золото и другие полезные ископаемые на наиболее перспективных участках гор Чакыл-Калян (Кызылтурукское рудное поле) и поиского-оценочных работы на ркдопроявлении Кызылтурук за 1976-79 гг. Фонды ГП «Кашкадарьинской ГРЭ»
4. Раскин В.Е. Отчет о результатах поисково-оценочных работ на золото и др. полезные ископаемые на рудопроявлении Широтное и детальных поисков на Гандинской перспективной площади и на рудопроявлении Ходжавахалюк за 1979-82 гг. Фонды ГП «Кашкадарьинской ГРЭ»
5. Жўраев М.Н. Чақил-Калон тоғининг жанубий қисмидаги Қизилтурик конида олтин-вольфрам маъданлашувнинг ўзига хос хусусиятлари // ТошДУ хабарлари. Тошкент 2016, с 240-244
6. Жабборов Д.Э. Стратиграфо-литологические критерии локализации золото-вольфрамового месторождения Широтный Кызылтурукского рудного поля // «ИННОВАЦИЯ 2016» мавзусида Халқаро илмий анжуман Ўзбекистон Ташкент -155-156 с.
7. Очилов И.С. Чакилкалян тоғларидаги апокарбонат олтин маъданлашувининг минералогик – геокимёвий хусусиятлари // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” илмий-амалий конференция материаллари тўплами. АҚШ 2021–180-184 б.
8. Цой В.Д., Королева И.В. Отчёт «Минералого-геохимические исследования метасоматитов и руд Жамской перспективной площади по теме № 938 сектора минералогии и геохимии за 2011г.». Ташкент. Фонды ГП «Южно-Узбекистанская ГСПЭ», 2011 г.
9. Шнырев Д.В., Харин В.Г. Пояснительная записка по теме №942 «Изучение геолого-структурных условий локализации золотого и вольфрамового оруденения, составление геолого-структурной карты Жамской площади Каратюбинского рудного поля». Ташкент. Фонды ГП «Южно-Узбекистанская ГСПЭ», 2011 г.

ISSN 3030-3907

10. Зохидов А.Р., Анализ, разбраковка и обоснование локальных площадей на золото и золото-редкометальные оруденение в Каратюбе Чакылькалянском горнорудном районе Шахрисабз, Фонды ГП «Южно-Узбекистанская ГСПЭ» 2001 г.
11. Егоров П.Ф. Отчет о результатах поисковых работ на вольфрам, проведенных в Каратюбинских горах в 1971 – 74г.г. Фонды ГП «Центрально-Узбекистанская ГСПЭ» 1974 г.
12. Повилотие М.М. и др. Рудные формации эндогенных месторождений формации эндогенных месторождений вольфрама, олова и флюорита. М., Наука, 1976 г
13. Прокофьев А.П. Основы поисков и разведки месторождений твердых полезных ископаемых. М., Недра, 1973 г.
14. Методические рекомендации, по оценке представительности и достоверности опробования рудных месторождений. Т., ГП «НИИМР», 2009 г.
15. Методические указании о проведении геологоразведочных работ по стадиям Т., Госкомгеологии, 1999 г.

ISSN 3030-3907